

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
Z.M.BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI.
Musiqa va uni o'qitish metodikasi kafedresi

Musiqiy ta'lim yo'nalishi 2- bosqich talabasi A.Hamraqulovning

“Wolfgang Amadey Motsart xayoti va ijodi” mavzusidagi

Referati

Bajardi:
Tekshirdi:

A.Hamraqulov
X. Botirova

Annotatsiya

Mazkur referat Musiqa tarixi fani bo'yicha bajarilgan bo'lib, buyuk nemis kompozitori V.A. Motsartning ijodiy faoliyati va sharaflari hayoti haqida hikoya qilinadi. Ushbu referatda buyuk kompozitorining asarlari va ularning mohiyati hususida keng qamrovli fikr yuritiladi. Referatda Yosh Amadeyning onasi va opasi bilan chet ellarda konsert gastrollari, V.A. Motsartning otasi bilan Italiyaga qilgan safari va uning Motsart hayotidagi ahamiyati, V.A. Motsartning operalari va uning dunyo musiqa xazinasidagi ahamiyati kabi masalalar haqida hikoya qilinadi.

Ushbu referat musiqa san'atiga qiziquvchi yoshlar uchun umumiy ma'lumotlar beradi hamda ularning buyuk bastakorilar haqidagi tasavvurlarini boyitadi.

Reja:

1. Yosh Amadeyning onasi va opasi bilan chet ellarda konsert gastrollari.
2. V.A. Motsart otasi bilan Italiyaga qilgan safari va uning Motsart hayotidagi ahamiyati.
3. V.A. Motsartning operalari va uning dunyo musiqa xazinasidagi ahamiyati.

Wolfgang Amadey Mozart.

(1756 – 1791)

Yevropa mumtoz musiqasining – opera, oratoriya, balet, simfoniya, uvertyura, sonata kabi ko'p ovoqli janrlarga hos ilk namunalari o'rta asrlarda asarlar yaratishning qoidalari ham o'sha davrlardan shakllanib, bugungi kunda yuksak rivojlanish cho'qqisiga ko'tarilgan.

Opera – XVI asrning oxirida Italiyada paydo bo'lib, uning tarixiy – qahramonlik, tarixiy – romantic, yopiq, afsonaviy, lirik, dramatic, hajviy mavzularda yozilgan turlari mavjud bo'lib, mumtoz na'munaviy turlari J. Verdi, X. Glyuk, V. Motsart kabi Yevropa kompozitorlari tomonidan yaratilgan.

Chet el kompozitorlari ichida dunyoga yoshligidan mashxur bo'lgan kompozitor Avstraliyalik Wolfgang Amadey Motsartdir. U 1756 yil 27 yanvarda Avstriyaning kichik bir shaxarchasida Zalsburgda saroy kompozitori va organchisi Leopold Motsart oilasida dunyoga kelgan. Motsartning musiqaga bo'lgan qobiliyati 3 yoshidan boshlab yaqqol sezila boshlagan. U klavesinda soatlab shug'ullanar, opasi 8 yoshli Annaning cholg'an kuylarini bir eshitishda hatosiz aynan qaytarib chalib bera olar edi.

Otasi Leopold o'g'lining musiqiy qobiliyatiga tan beradi va Anna bilan bir qatorda Wolfgang bilan ham astoydil shug'ullana boshladi. Wolfgang Motsart 6 yoshida klavesinda yaxshi chala oladigan darajaga erishadi va birinchi asarini, kichik hajmdagi pyesalarini yoza boshlaydi.

Yetti yoshga kirganda Motsart opasi, 12 yoshli Anna bilan birgalikda Fransiya qirolining rezidensiyasi – Varsal saroyida konsert berishadi. Bolalar dastlab to'rt kun uchun mo'ljallangan bir nechta murakkab asarlarni chalib, hammani hayratga solishadi. Keyin Wolfgang Motsart skripkasini olib bir qancha asarlarni nihoyatda toza va katta mahorat bilan chalib beradi. Opasi Anna unga klavesinda jo'r bo'ladi. Saroyga to'plangan mehmonlar Wolfgang bilan qiziqib qolishadi. U birinchi marta ko'rayotgan notanish asarlarni notaga qarab to'xtamasdan, qiyomiga yetkazib chalib etadi. Berilgan muiqa bo'lagini ham xilma – xil bezaklar qo'shib turlicha chalib beradi. Mehmonlar chalg'an musiqa bo'lagini xech qiynalmasdan ko'zi bog'liq holda chaladi.

Uning nomi boshqa shaxarlarda ham yoyiladi. U bir necha davomida Vena, Parij, London, Gana, Bryussel, Jeneva kabi bir qancha shaxarlarda konsert qo'ydi.

Otasi Leopold o'g'li Wolfgangga musiqa yozish sirlarini, kompozitsiyani mukammal o'rgatib bordi. Natijada 8 yoshli Motsartning birinchi kitobi

Parijda bosilib chiqdi. Motsart 12 yoshida o'zining birinchi operasini yaratdi.

Volfgangning otasi Leopold Motsart bolalarining xar tomonlama keng bilim olishiga sharoit yaratib berdi. Yosh Motsart chet tillari, tarix, geografiya, arifmetika va boshqa fanlardan ham yetarlicha bilim oldi. U Parijda, Londonda opera teatrlariga va simfonik orkestr konsertlariga tez – tez borib turadi.

Volfgang Motsartning Italiyaga otasi bilan qilgan safari uning hayotida o'chmas iz qoldirdi. Italiya shaxarlarining boy arxitekturasini, dilbar tabiati, muzey va teatrlari yosh Motsartni yanada ilxomlantirib yubordi.

Bir necha oy davomida Motsart Italiyadagi eng yetuk musiqa nazoratchisi Padre Martinidan kompazitorlik sirini o'rgandi. O'qish oxirida 14 yoshli Motsart sinovlardan oily darajada o'tib, Boloniya Musiqa Akademiyasining faxriy a'zosi diplomini olishga muvassar bo'ldi.

Yangi taassurot va yangi ilxomlar bilan u juda ko'plab musiqa asarlarini yaratadi. “Sexrli fleyta”, “Figaroning uylanishi” operalari, qator – qator simfoniyasi, fortepiano uchun yozilgan sanatalar, konsertlar va xor uchun qo'shiqlar uning ijodiy maxsuli bo'ldi.

Motsartni mo'jizali bola deb atashar edi. Hayotini oxirida Venada yashadi. Bu yillar bastakorning yetuk ijodiy davridir. Bu yerda u turmush qurgan. Eng zo'r asarlarini shu yerda yozgan.

Ular:

“Figaroning uylanishi”

“Don Juan”

“Sexrli fleyta” operalaridir.

Ammo mahalliy aristokratlar hayotining oxirida Wolfgang Amadey Motsartning buyuk iste'dodini yetarlicha qadrlay olishmadi.

Unga xizmatkor, boy va badavlat kishilarning ko'nglini olish uchun xizmat qiluvchi oddiy bir qiziqchi sifatida qarashdi. Motsart esa musiqaga hayotiy zarurati bo'lgan muxim shu deb qaradi.

Motsart hammasi bo'lib 36 yil umr ko'rdi. Ammo shu qisqa davr ichida boy musiqiy me'ros qoldirdi. Butun dunyo kishilari uni buyuk kompozitor sifatida tan olishadi va uning asarlarini sevib tinglashadi.

Motsart buyuk avstriya bastakori Vena klassik maktabining vakilidir. Mtsart hayoti davomida 41 ta simfoniya, 19 ta sonata, 19 ta opera va boshqa asarlar yozgan. Motsart lirik va drammatik janrning asoschisi bo'lgan. Motsart asarlari ichida 40 - simfoniya eng taniqli hisoblanadi. 40 – simfoniya 1788 yil Venada yozilgan. Simfoniyaning janri lirik drammatik xarakterda yozilgan. Simfoniyaning g'oyasi lirik tragikdir.

Birinchi qism.

Sonata allegro shaklida sol minor tonaligida yozilgan. Asosiy partiya hayajonli lirik. Janr manbai qo'shiq. Buning intonatsion asosi kichik sekunda pastga va kichik seksta tepaga, asosiy partiya qarama – qarshi. U 2 ta elementdan iborat:

1 – kichik sekunda va kichik seksta intonatsiyasi.

2 – qo'shaloq Dominanta akkordi Dominanta uch tovushligi yechilishi bilan.

Bog'lovchi partiya yordamchi partiyaga mavzuli negizli va tonallik o'tishini qilishi mumkin. Bog'lovchi partiya 3 bo'limdan iborat:

1. Asosiy partiyani intonatsiyasi asoslangan.

2. Mavzu.

3. Dominanta tayyorlanishi.

Yordamchi partiyada si bemol major osoyishta ixcham chiroyli mavzu. Yakuniy partiya bir tomondan asosiy tonallikdan o'tmagani uchun rivojlovga yo'l beradi.

Ikkinchi qism.

Mi bemol – major sonata shaklida yozilgan bosh partiya mavzularida qarama qarshilikka to'la ikkalasi ham sof, tiniq, osoyishta, lirikligi bilan ajralib turadi.

Uchinchi qism. Menuet.

Murakkab uch qisimli shaklda yozilgan sol minor. Menuetda raqsga hos tomoni yo'q. Raqs elementlari esa trioda bor.

To'rtinchi qism. Final.

Sona shaklida sol minorda yozilgan birinchi qism o'xshashliklari juda ko'p. Birinchi tomon bosh partiya va bog'lovchi partiyalar. Ikkinchi tomon yordamchi partiya tabiatdan bir xilda qarama qarshi qo'yilgan.

Ritm jihatdan u sitsiliyaga yaqin turadi. Variatsiyalarning oltitasida ham mavzuli obraz mazmuni tub o'zgarishga uchramaydi.

Buyuk Avstriya bastakori Vena klassik maktabining vakili bo'lgan Wolfgang Amadey Motsart 1791 yilda 45 yoshida Venada vafot etdi.

Hulosa

Amadey Motsartning hayot yillari.

Eng ijod san'at hayot tashvishlarining odilona hal etilmagan, siyosatning noto'g'ri yo'nalishida turli asarlar yaratgan ajoyib shaxsning bu dunyodan hech narsani orqalab ketmagani aksincha kelajak avlodga bitmas tuganmas meros qodirgani aniq.

Juda kichkina bolaning ilk yozgan asari yoki she'ri o'zining mehridaryo onasi yoki sevimli o'yinchog'iga bag'ishlanadi lekin "bizning" Motsart juda yosh paytida yozgan operasi kattalarni ham esankiratib qo'ygani meni taajjublantirdi. Asarlaridan "Figaroni uylanishi" nomli operasi menda katta ta'surot qoldirdi. Wolfgang Amadey Motsartning inson sifatida ham e'tiborli bo'lgani halqning dardini notaga solganidan anglsh mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

T.E.Solomonova. O'zbek musiqasi tarixi T.1981.

I.Rajavov Maqomlar masalasiga doir T.1963.

O.Matyokubov Ogzaki an'anadagi professional muzikaga kirish T.1983.

O.Matyokubov Maqomot T.2004.

V.Matyokubov Xorazm doston ijrochiligining zarxal saxifalari X.1999.

A.Od.ilov "O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi" T., G.G'ulom 2002

A. Javborov "O'zbeklar turmush tarzi va madaniyati" T., G. G'ulom 2002

A.Javborov "Musiqiy drama va koediya janrlari O'zbek kompozitorlarining ijodiyotida" T., G. G'ulom 2000